

DURAGAY QOVUN NAVLARINI SUVGA BO'LGAN MUNOSABATI

G'ofurova Shoira Qandahar qizi

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

Rahmjonov Davronjon Dilshod o'g'li

Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolamizda duragay avlod qovun urug'larini har xil me'yorida sug'orib, yuqori natija qayd etgan variantlarni ishlab chiqarishga tavsiya qilinadi. Shuningdek, tezpishar duragaylar yangi navlarni yaratish uchun seleksionerlarga tavsiya etiladi.

Kalit so'z: qovun, qovoqdosh, urug', nav, suv, ildiz, havo, tuproq, kasallik, iqlim.

Annotation. In this article, it is recommended to water melon seeds of the hybrid generation at different rates and produce variants with high results. Also, quick hybrids are recommended to breeders to create new varieties.

Keywords: melon, squash, seed, variety, water, root, air, soil, disease, climate.

Аннотация. В данной статье рекомендуется использовать семена арбуза гибридного поколения с разной нормой и получать варианты с высокими результатами. Также быстрые гибриды рекомендуются селекционерам для создания новых сортов.

Ключевые слова. дыня, тыква, семя, сорт, вода, корень, воздух, почва, болезнь, климат.

Kirish. Hozirgi kunda Respublikamiz qishloq xo'jaligida bo'layotgan o'zgarishlar tufayli polizchilikka ham e'tibor kuchaydi. Ayniqsa bozor iqtisodiyoti davrida, oziq-ovqat muammo bo'lib turganda qimmatbaho ekinlardan bo'lgan tarvuz, qovun va qovoq ishlab chiqarishni kuchaytirish ham taqazo etilmoqda.

O'zbekistonda mavjud poliz ekinlari maydoni 42-45 ming gektar hosildorligi 200 sentner atrofida bo'lsa, yaqin kelajakda bu ko'rsatkichni 60 ming gektarga va yalpi

hosilni 1,5 mln tonnaga yetkazish koʻzda tutilmoqda. Respublikamizda har yili aholi jon boshiga poliz mahsulotlari ishlab chiqarish yaqin yillarda 98,7 kilogrammga yetkazishi shuning 54,8 kilogrammini qovun tashkil etishi rejalashtirilgan. Poliz ekinlari qovoqdoshlar (Cucurbitaceae) oilasiga mansub bir yillik oʻt oʻsimlik. Poliz ekinlari oʻq ildizli boʻlib ular asosiy va yon tartib ildizlardan tashkil topgan. Tuproqning 15-40 sm chuqurligida asosiy ildizdan ikkinchi va uchinchi tartib yon ildizlar chiqadi.

Poliz ekinlarida dastlabki oʻsuv fazalaridan ildizlari yer ustki qismlariga nisbatan kuchli rivojlanadi. Shuning uchun, ular koʻchirib yoki koʻchatidan koʻpaytirilmaydi. Umuman, poliz ekinlarida ildizlarning oʻsishi, rivojlanishi va tarqalishi tuproq turiga, mexanik tarkibiga va sizot suvlarining joylanish chuqurligiga bogʻliq boʻladi.

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. duragay avlod qovun urugʻlarini har xil meʼyorida sugʻorib, yuqori natija qayd etgan variantlar ishlab chiqarishga tavsiya qilinadi. Shuningdek, tezpishar duragaylar yangi navlarni yaratish uchun seleksionerlarga tavsiya etiladi.

Tadqiqotning vazifalari. Tajriba qoʻyishdan oldin tuproqqa dastlabki agrokimyoviy tavsif berish. Tajriba maydonidan belgilangan kesimida tuproq namunalari olish va bu tuproq namunalari tarkibida chirindi, yalpi azot, umumiy fosfor, tuproqdagi ozuqa elementlarini harakatchan formalaridan nitratli va ammoniyli azot, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdorlarini aniqlash.

Tadqiqot natijalari Andijon viloyatining och tusli boʻz tuproqlarining agrofizik va agrokimyoviy xususiyatlari qovun ekinining oʻsishi va rivojlanishiga ijobiy taʼsir etishi aniqlandi. Amal davri oxiridagi tuproq namunalarning tahlil natijalariga qaraganda, 1,2,3,4- variantlarning haydov (0-30 sm) qatlamida tuproq zichligi tegishli ravishda 1.35; 1.34; 1.36; 1.37 g/sm³ ni tashkil etib, amal davrining boshidagi koʻrsatkichga nisbatan 0.06-0.09 g/sm³ ga zichlashganligi aniqlandi.

Tuproqning 0-50 sm li qatlami boʻyicha olib qaraganda ham bu koʻrsatkichlar 1.40; 1.41 va 1.43 g/sm³ tashkil etib, tuproq zichlanishini ortib borishi qayd etildi. Tajriba dalasidagi tuproqning gʻovaklik xususiyati esa, barcha variantlarda tuproq

hajm og‘irligiga bevosita bog‘liq ravishda o‘zgarib bordi. Boshqacha aytganda, tuproq zichlanishi kamayganda g‘ovaklik xususiyati yaxshilanadi, tuproq zichlanishi ortib borganda, g‘ovaklik xususiyatini pasayishi kuzatiladi. 1-iyun kungi kuzatuvlarda 3-4-variantlardagi qovunning bo‘yi 35.2 sm ni tashkil etdi. 1-2-variantlardagi qovunning bo‘yi 39.0-39.3 sm ni tashkil qilib, 3-4-variantlarda parvarish qilinayotgan qovunning bo‘yiga nisbatan 4.1-4.2 sm ga balandroq o‘sib rivojlandi.

Xulosa. Och tusli bo‘z tuproqlarining agrofizik va agrokimyoviy xususiyatlari qovun ekinining o‘sishi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir etishi aniqlandi. Amal davri oxiridagi tuproq namunalarining tahlil natijalariga qaraganda, 1,2,3,4- variantlarning haydov (0-30 sm) qatlamida tuproq zichligi tegishli ravishda 1.35; 1.34; 1.36; 1.37 g/sm³ ni tashkil etib, amal davrining boshidagi ko‘rsatkichga nisbatan 0.06-0.09 g/sm³ ga zichlashganligi aniqlandi.

Tuproqning 0-50 sm li qatlami bo‘yicha olib qaraganda ham bu ko‘rsatkichlar 1.40; 1.41 va 1.43 g/sm³ tashkil etib, tuproq zichlanishini ortib borishi qayd etildi.

Tajriba dalasidagi tuproqning g‘ovaklik xususiyati esa, barcha variantlarda tuproq hajm og‘irligiga bevosita bog‘liq ravishda o‘zgarib bordi. Boshqacha aytganda, tuproq zichlanishi kamayganda g‘ovaklik xususiyati yaxshilanadi, tuproq zichlanishi ortib borganda, g‘ovaklik xususiyatini pasayishi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Meva-poliz va poliz mahsulotlarini yetishtirish, Saqlash va qayta ishlash texnologiyasi. Samarqand, 2006.
2. Ostonaqulov T., Nahalboev G‘. Tarvuz hosildorligiga tup Qalinligining ta’siri. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali, 2009 yil,
3. Ostanakulov T.E.–Poliz ekinlar biologiyasi va o‘stirish texnologiyasi. Toshkent-1997 yil.